



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA  
AGENTLIGI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
ASOSIY KAPITALGA  
INVESTITSIYALAR**

**2023-YIL YANVAR-IYUN**

2023- yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 139,1 trln. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

### 2023- yil yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar






**Asosiy kapitalga investitsiyalar** – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

**Yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, trln. so'm**




So'nggi yillardagi ularning o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, 2019- yilda 158,9 % ga yetgan, 2020- yilda pasayib - 90,6 % ni tashkil etgan, 2021- yilda ko'payib - 102,5 % kuzatildi, hozirgi davrgacha yana o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 107,9 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da**



2023- yilning yanvar-iyun oylarida jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kamayib, 12,3 % ni yoki 17,1 trln. so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 122,0 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 87,7 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kopaydi.



2023- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 59,8 % i yoki 83,1 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,2 % yoki 56,0 trln. so'm moliyalashtirildi.

2023- yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha investitsiya statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha 3 725 ta yirik korxonalar va 1 184 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan hisobotlar qabul qilindi.

**2023- yilning yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Jamiga nisbatan, % da



**Statistik tahlilni o'tkazish maqsadlarida** asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha.

**Yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da**



2023- yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 6,9 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi esa 0,1 % punktga kamayib, 4,9 % darajasida qayd etildi.


**O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari quyidagilar**




Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 0,3 trln. so'mni (dollar ekvivalentida 31,2 mln. AQSh dollari) va jami investitsiyalardagi ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamayib, 0,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg'arma hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70,9 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Respublika budjetidan moliyalash-tiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni yoki 9,1 trln. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,8 % ni, 0,8 trln. so'mni tashkil etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mos ravishda 0,2 % punktga kamayib, 0,6 % ni tashkil etdi.

### O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari



### Yanvar-iyun oylarida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi**, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar va tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 41,7 trln. soʻm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 30,0 % ini tashkil etdi.

Bevosita toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha 23,8 trln. soʻm, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga koʻpaygan holda jami ulushi 17,1 % ga teng investitsiyalar oʻzlashtirildi.

Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichlar va oʻsish surʼatlari toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hisobiga toʻgʻri kelib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 121,3 % ni tashkil etdi.



Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 28,3 trln. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % punktga kamaygan holda jami ulushi 20,4 % investitsiyalar o'zlashtirildi.

*To'g'ridan-to'g'ri va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan quyidagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi*

- *Sirdaryo viloyatida quvvati 1500 MVt bo'lgan yangi elektr stansiyasini qurish*
- *2021-2025 yillarda respublika neft-gaz hududlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish*
- *“Yoshlik 1” konini o'zlashtirish*
- *2020-2030- yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini oshirish dasturini amalga oshirish*
- *Buxoro viloyatida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyasini qurish*
- *“Mustaqillikning 25 yilligi” konida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish va konni o'zlashtirish, gaz-kimyoo kompleksini barpo etish*
- *2017-2023- yillarda uglevodorod xomashyosi qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish*
- *Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish*



**2022-y.**  
**9,4 trln. so'm**



**2023-y.**

**13,9 trln. so'm**





Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan 13,9 trln. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,0 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga ko'payish) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,2 % i yoki 14,3 trln. so'm o'zlashtirildi. Aholi mablag'lari hisobidan asosan uy-joylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan.


Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish (Oniks, Treker), sement ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik gaz ishlab chiqarishni tashkil etish, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish, paxta-to'qimachilik va agroklaster tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 42,0 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 30,2 % i o'zlashtirildi.

### 2023- yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajm trln. so'm va ulushi % da



Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha** amaldagi faoliyat turlari tasniflagichi IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, hajm trln. so'm va ulushi % da (davomi)



Ijtimoiy sohadagi eng muhim faoliyatlardan biri bu turar-joy qurilishi hisoblanadi. Ushbu faoliyat turi bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 12,0 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 8,6 % ni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 8,2 trln. so'm yoki o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 5,9 % ini tashkil etdi.

Elektr-gaz ta'minoti faoliyati turi bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 10,4 trln.so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ular umumiy hajmning 7,5 % ini tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida jami 11,1 trln. so'm yoki respublika bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 8,0 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 2,9 % i yoki 4,0 trln. so'mi xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish sohasiga tegishlidir.

Davlat budjeti mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori ko'rsatkichlar Surxondaryo viloyatida – hududdagi jami investitsiyalarning – 12,9 % ini, Farg'ona viloyatida – 12,3 % va Qoraqalpog'iston Respublikasida – 11,6 % miqdorida kuzatildi.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida**


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'm	<i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)</i>						
		Respublika budjeti	korxonalar mablag'i	aholi	xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
<b>O'zbekiston Respublikasi<sup>1)</sup></b>	<b>139 104,6</b>	<b>6,5</b>	<b>30,0</b>	<b>10,2</b>	<b>42,4</b>	<b>0,6</b>	<b>0,3</b>	<b>10,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 703,6	11,6	26,9	14,4	38,8	0,3	-	8,0
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	6 782,4	10,8	18,7	11,1	55,2	1,2	-	3,0
Buxoro	12 318,0	5,9	27,6	12,6	44,0	0,4	-	9,5
Jizzax	6 309,3	9,4	34,7	5,5	35,8	1,7	-	12,9
Qashqadaryo	7 304,6	7,6	23,3	14,9	46,1	1,3	0,7	6,1
Navoiy	9 552,1	4,1	32,9	9,6	48,6	0,3	-	4,5
Namangan	7 909,0	3,6	28,4	13,0	33,8	0,5	-	20,7
Samarqand	12 251,9	5,9	31,2	4,8	33,0	0,5	-	24,6
Surxondaryo	5 995,3	12,9	12,5	16,4	48,3	1,1	-	8,8
Sirdaryo	6 563,5	3,4	8,0	1,7	82,1	0,1	-	4,7
Toshkent	18 473,5	4,4	30,3	8,8	47,2	0,5	1,5	7,3
Farg'ona	8 352,6	12,3	18,0	23,1	38,8	1,4	-	6,4
Xorazm	3 953,7	6,1	19,9	22,3	48,2	0,9	-	2,6
Toshkent sh.	28 454,0	4,9	47,1	6,3	31,1	-	0,1	10,5

<sup>1)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar bo'yicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning 47,1 % ini tashkil etdi. Shuningdek, Jizzax viloyatida 34,7 % va Navoiy viloyatida 32,9 % ni tashkil etdi.

Jalb qilingan moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar alohida o'ringa ega. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo va Andijon viloyatlarida kuzatilib, mos ravishda 82,1 va 55,2 % ni tashkil etdi.

### 2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 137,7 % ga o'sib, Toshkent viloyatida kuzatildi. Ushbu natijani "Yoshlik" konini o'zlashtirish" kabi yirik loyihalarga investitsiyalarni o'zlashtirish bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, Samarqand viloyatida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,3 % ni tashkil qildi. Bu hududda turistik markaz qurilishi, quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi, Samarqand kimyo majmuasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.




Farg'ona viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ga o'sishi, avvalambor birinchi navbatda ip-kalava va sement ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq.

Investitsion faollikning eng past o'sish sur'atlari Andijon viloyatida – 89,2 % (investitsiya hajmi 6 782,4 mlrd. so'm) va Qashqadaryo viloyatida – 93,0 % (7 304,6 mlrd. so'm) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya'ni 58,4 % i respublikaning besh hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 20,5 %, Toshkent viloyati – 13,3 %, Buxoro – 8,9 %, Samarqand viloyatlarida – 8,8 %, Navoiy viloyatida – 6,9 % investitsiyalar o'zlashtirildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida – 9 554,7 ming so'm (yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslaganda – 107,5 %), Navoiy viloyatida – 9 008,0 ming so'm (yoki 102,6 %), va Sirdaryo viloyatida – 7 287,1 ming so'm (yoki 95,1 %) miqdorida qayd etildi.

### 2023- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar



o'sish sur'ati, % da

hajm, mlrd. so'm

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 63 886,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 45,9 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 63 397,8 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 45,6 %) va boshqa xarajatlarga 11 820,8 mlrd. so'm (8,5 %) o'zlashtirildi.


**2023- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, % da**



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida kuzatildi – 65,4 % yoki 3 923,0 mlrd. so'm.


Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Sirdaryo viloyatida kuzatilib, 17,4 % ni yoki 1 142,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 71,6 % yoki 4 700,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi dinamikasi (jami ga nisbatan % da)**






## 2023- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 77 645,7 mlrd. so'mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 55,8 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 33 751,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,3 % ini tashkil etdi. Qolgan 19,9 %, ya'ni 27 707,8 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

### Yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi dinamikasi (jamiga nisbatan % da)



Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich, quvvati 1 500 MVt bo'lgan yangi elektr stansiyasi hamda quvvati 220 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish loyihalari bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Sirdaryo viloyatida kuzatilib, u 81,7 % ni tashkil etdi.



2023- yil yanvar-iyun oylarida korxonalar va tashkilotlarning kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyaga investitsiyalar ulushi bo'yicha yuqori natijalar Qoraqalpog'iston Respublikasida – 48,3 % (2 272,9 mlrd. so'm), Andijon viloyati – 39,2 % (2 658,5 mlrd. so'm), Qashqadaryo viloyati – 33,5 % (2 448,5 mlrd. so'm) va Jizzax viloyatida –30,9 % ga tengligi (1 950,5 mlrd. so'm) kuzatildi.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi**

	<i>Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan % da:</i>		
		<i>yangi qurilish</i>	<i>kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya</i>	<i>boshqa yo'nalishlar</i>
<b>O'zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup></b>	<b>139104,6</b>	<b>55,8</b>	<b>24,3</b>	<b>19,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4703,6	32,3	48,3	19,4
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	6782,4	50,1	39,2	10,7
Buxoro	12318,0	60,9	23,1	16,0
Jizzax	6309,3	42,2	30,9	26,9
Qashqadaryo	7304,6	36,8	33,5	29,7
Navoiy	9552,1	60,5	16,6	22,9
Namangan	7909,0	64,1	28,8	7,1
Samarqand	12251,9	65,7	16,9	17,4
Surxondaryo	5995,3	65,8	20,8	13,4
Sirdaryo	6563,5	81,7	11,7	6,6
Toshkent	18473,5	69,1	17,2	13,7
Farg'ona	8352,6	54,3	24,2	21,5
Xorazm	3953,7	62,8	24,6	12,6
Toshkent sh.	28454,0	41,3	26,2	32,5

<sup>1)</sup> Hududlar bo'yicha hajmni qo'shgan holda



2023- yilning yanvar-iyunida 59,0 trln.so'm (dollar ekvivalentida 5,2 mlrd. AQSh doll.) yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,4 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 42,4 % ni tashkil etdi.

### 2023- yil yanvar-iyun oylarida xorijiy investitsiya va kreditlar, trln. so'm




To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 52,1 trln. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 6,9 trln. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hamda O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi mos ravishda 88,3 % va 11,7 % ni tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 23,8 trln. so'm yoki jamiga nisbatan 45,7 % ni, boshqa investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 28,3 trln.so'mni yoki jamiga nisbatan 54,3 % ni tashkil etdi.

### Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 26,9 trln. so'mni yoki jamiga nisbatan 45,6 % ni va mos ravishda xorijiy kreditlar 32,1 trln. so'mni yoki 54,4 % ni tashkil qildi.



To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ustav kapitalda  
10 % dan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy  
va nomoliyaviy qo'yilmalaridir.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm**


	Jami	Shu jumladan:		
		to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>58990,3</b>	<b>23815,7</b>	<b>6862,3</b>	<b>28312,3</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1823,3	195,1	537,1	1091,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	3744,4	2362,9	206,1	1175,4
Buxoro	5425,7	2298,1	572,6	2555,0
Jizzax	2258,1	420,9	110,2	1727,0
Qashqadaryo	3365,3	580,5	440,3	2344,5
Navoiy	4644,3	1064,3	168,2	3411,8
Namangan	2673,3	678,0	251,7	1743,6
Samarqand	4048,8	2431,2	220,5	1397,1
Surxondaryo	2893,2	2045,6	146,1	701,5
Sirdaryo	5386,1	4627,3	27,3	731,5
Toshkent	8729,3	1635,1	651,7	6442,5
Farg'ona	3236,1	1641,1	111,6	1483,4
Xorazm	1906,5	755,1	322,7	828,7
Toshkent sh.	8855,8	3080,3	3096,2	2679,3



2023- yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida qayta ishlash sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 26,2 trln. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 44,3 % ini tashkil etdi.

Elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyat turida bu ko'rsatkich 7,6 trln. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 12,9 % ini qayd etdi.

### 2023- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



### 2023- yil yanvar-iyun oylarida foydalanishga topshirilgan ijtimoiy soha obyektlari

2023- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 6 599,0 ming kv.m turar joy ishga tushirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida turar joy qurilishida jami 9 341,7 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, respublika budjeti mablag'lari hisobidan 20,5 mlrd. so'm, korxonalar va tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan 36,6 mlrd. so'm, aholi mablag'lari hisobidan 8 792,6 mlrd. so'm va boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan 492,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami 1 390,0 km suv tarmog'i ishga tushirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 martaga oshdi. Ta'kidlash joizki, ishga tushirilgan suv tarmoqlarining 73,7 % i yoki 1 023,8 km qishloq joylarda joylashgan.




### Yanvar-iyun oylarida ishga tushirilgan suv tarmoqlari, km



Gaz tarmog'i bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 26,6 km uzunlikdagi tarmoq ishga tushirilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ni tashkil etdi. Ishga tushirilgan gaz tarmoqlarining qishloq joylardagi ulushi 60,2 % yoki 16,0 kmni tashkil etdi.

### Yanvar-iyun oylarida ishga tushirilgan gaz tarmoqlari, km



### Yanvar-iyun oylarida ishga tushirilgan turar-joylar maydoni, ming kv.m





Suv tarmog'i qurilishida jami 694,1 mlrd. so'm, gaz tarmoqlari qurilishida 3,5 mlrd. so'm, umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar qurilishida 797,5 mlrd. so'm, maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishida 356,4 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

### 2023-yil yanvar-iyun oylarida turar-joylarni ishga tushirish

	<i>Xonadonlar soni, birlik</i>	<i>Maydoni, ming kv.m</i>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>30 620</b>	<b>6 599,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 594	476,4
viloyatlar:		
Andijon	2 040	486,3
Buxoro	3 868	966,0
Jizzax	1 356	303,0
Qashqadaryo	2 172	437,8
Navoiy	1 349	361,1
Namangan	3 615	544,9
Samarqand	990	113,2
Surxondaryo	3 428	641,0
Sirdaryo	200	38,4
Toshkent	3 411	852,1
Farg'ona	2 467	606,8
Xorazm	1 741	495,8
Toshkent sh.	1 341	273,5

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi

Aloqa telefoni: (71) 203-80-00 (1161)